

## AVTOTURARGOHLARDA AVTOTRANSPORT VOSITALARINI OMONAT SAQLASH SHARTNOMASI

**Abdualimov Shohrubbek Abduvohid o'g'li**

TDYU Xususiy huquq fakulteti, 3-kurs talabasi

[shoh.abdu02@gmail.com](mailto:shoh.abdu02@gmail.com)

**Annotasiya.** Fuqarolik huquqida fuqarolik huquqiy shartnomalarning har bir elementi jamiyat hamda fuqarolar hayotida muhim o'rin tutadi. Xuddi shuningdek, avtomoshinaga ega bo'lgan har bir shaxs, o'z avtomoshinasini maxsus saqlash joylari – avtoturargohlarga joylashtirishga doir munosabat bilan deyarli har kuni duch keladi.

Bunday holatda avtoturargoh ma'muriyati va avtomoshina egasi o'rtasidagi munosabatni tartibga solish, jumladan avtomoshina egasi va avtoturargohning bir-biriga nisbatan bo'lgan huquq va majburiyatlariga doir normalarni o'rnatish hamda shu normalar orqali tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan kelishuv va nizolarni tartibga solish zarurati yuzaga chiqadi. Bunday holatda tomonlar o'rtasidagi kelishuv va nizolar omonat saqlash shartnomasi orqali tartibga solinadi. Avtomoshina egasi yuk topshiruvchi maqomida, avtoturargoh esa omonat saqlovchi maqomida bo'ladi.

Mazkur ishda avtotransport vositasini avtoturargohda omonat saqlash shartnomasining mazmun mohiyati, ushbu munosabatni tartibga solishdagi xorijiy tajriba, chet el mamlakatlarining yutuq va kamchiliklari, sohani O'zbekiston Respublikasidagi kelajagi atroflicha muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** fuqarolik huquqiy shartnoma, avtoturargoh, avtomoshina egasi, omonat, omonat saqlovchi, yuk topshiruvchi.

## STORAGE AGREEMENT OF MOTOR VEHICLES IN PARKING LOTS

**Abdualimov Shohrubbek Abduvohid o'g'li**

TSUL, Faculty of private law, 3rd year student

[shoh.abdu02@gmail.com](mailto:shoh.abdu02@gmail.com)

**Abstract.** In civil law, every element of civil legal contracts has an important place in the life of society and citizens. Also, every person who owns a car is faced almost every day with regard to the placement of their car in special parking areas.

In this case, regulation of the relationship between the parking administration and the car owner, including the establishment of norms regarding the rights and obligations of the car owner and the parking lots, as well as the regulation of agreements and disputes arising between the parties through these norms need to apply. In this case, the agreement between the parties and disputes are regulated by the storage contract. The owner of the vehicle is the depositor, and the parking is the warehouseman.

In this article, the essence of the storage contract of a motor vehicle in the parking, foreign experience in regulating this relationship, achievements and comings of foreign countries, and the future of this industry in the Republic of Uzbekistan are discussed in detail.

**Key words:** civil contracts, parking, the owner of the vehicle, storage, warehouseman, depositor.

Omonat saqlash shartnomalari haqida gap ketar ekan, beixtiyor biz qadimgi Rimni eslashga majbur bo‘laveramiz. Chunki omonat saqlash shartnomalari avvalo Rim huquqi oraqli dunyo yuzini ko‘rdi. Nafaqat omonat saqlash shartnomalari balki romana german oilalariga kiruvchi har qanday shartnomalarning yo‘llari Rimga borib tutashadi. Olimlar buning bir qancha sabablarini keltirishadi. Bizningcha esa qadimgi Rimliklar har qanday yaratilajak va o‘rnatilajak qonunlarni ishlab chiqishda ularga dunyoviy nuqai nazar bilan qarashgan. Aytmoqchimizki, Rimliklar qonunlar ishlab chiqishar ekan, ularga diniy unsurlarni aralashtirishmaganlar. Qaysidir ma’noda aynan shu narsa ular ishlab chiqqan qonuniyatlar zamonlar osha bizgacha yetib kelishiga sababchi bo‘lgan. Bizning mavzuimiz bo‘lgan omonat saqlash shartnomasi Rimliklar tilidagi “depositium” so‘zidan kelib chiqqan. Qadim zamonlarda omonat saqlash maishiy hayot va tadbirkorlik faoliyatining eng oddiy va samarali instrumentlaridan biri bo‘lgan va aynan bugungi kunda ham faol tarzda fuqarolik huquqiy munosabatlarda ishlab kelmoqda. Ushbu shartnomaning huquqiy tabiatiga etibor beradigan bulsak, shartnomada ikki taraf ya’ni omonat saqlovchi va yuk topshiruvchi ishtirok etadi. Shartnoma ham real ham konsensual, ham bir tomonlama ham ikki tomonlama, ham regulyar ham irregulyar, ham haq evaziga ham tekin bo‘lishi mumkin. Ushbu shartnomaning predmeti bo‘lib, omonatni olish va uni ma’lum muddat saqlagan holda qaytarish hisoblanadi. Munosabat omonat saqlash shartnomasiga mos kelishi uchun omonatga topshirilayotgan ashyo ko‘char mulk bo‘lishi zarur. Omonat saqlash shartnomasi mazmunan ijara shartnomasiga yaqin tuyuladi lekin bu ikki shartnomani bir biridan ajratib turuvchi ko‘plab belgilar mavjud. Avvalambor omonat saqlash shartnomasida topshirilayotgan ashyodan foydalanish huquqi saqlovchiga o‘tmaydi. Ikkinchida omonat saqlash shartnomasida topshirilayotgan ashyo albatta ko‘char mulk bo‘lishi zarur. Bu bilan birga yana

ko‘plab ikki shartnomani farqlovchi jihatlar mavjud. Omonat saqlash shartnomasining shakli oddiy yozma shaklda, og‘zaki va patta, chek, kvitansiya hamda jiton shaklida ham bo‘lishi mumkin. Ushbu shartnomaning o‘ziga xos tomonlaridan biri shuki shartnoma shakliga rioya qilmaslik taraflarni haqiqiy holatni guvohlar ko‘rsatuvlari bilan isbotlatishlariga to‘sqinlik qilmaydi. Shartnomaning muddati taraflar kelishuvi bilan belgilanadi. Bu muddat ma’lum sanalarga yoki voqea hodisalarga bog‘langan ham bo‘lishi mumkin. Lekin yuk topshiruvchi istalgan vaqtda o‘z narsasini qaytarib olishi mumkin. Shu o‘rinda omonat saqlovchilar ikki turga bo‘linishini ham eslab o‘tishimiz darkor. Oddiy omonat saqlovchi va professional omonat saqlovchi. Professional omonat saqlovchilar belgilangan tartabda davlat ro‘yxatidan o‘tgan va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun ruxsatnoma olgan bo‘lishadi. Omonat shartnomasi bo‘yicha saqlanadigan narsalar aksariyat hollarda xususiy alomatga xos ashyolar bo‘lishi mumkin. Lekin qonunchilik turga xos alomatli ashyolarning ham omonat saqlashga qo‘yilishiga to‘sqinlik qilmaydi.

Endilikda bevosita avtoturargohlarda avtotransport vositalarini omonat saqlash shartnomalariga to‘xlatib o‘tadigan bo‘lsak. Ushbu munosabat o‘z xarakteridan kelib chiqib ijara shartnomasiga ham o‘xshab ketishi mumkin. Lekin tomonlar o‘rtasida yuzaga keladigan huquq va majburiyatlar mazkur shartnoma aynan omonat saqlash shartnomasi ekanligini ko‘rsatib turibdi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan 31.07.2013 yilda qabul qilingan “Avtomototransport vositalarini doimiy va vaqtincha saqlash joylarini tashkil etish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi Qarorida ushbu munosabatni tartibga soluvchi normalar keltirib o‘tilgan. Ushbu shartnoma bo‘yicha bir taraf o‘z kuchar ashyosi bo‘lgan avtotransport vositasini saqlash uchun professional saqlovchi hisoblangan avtoturargohga topshiradi. Avtoturargoh tomonidan ushbu bitim patta berish yo‘li bilan tasdiqlanadi. Avtomototransport vositalarini

saqlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov naqd hisob-kitob qilish yo'li bilan ham, plastik kartochkalardan foydalangan holda ham amalga oshiriladi. Avtomototransport vositalarini saqlash bo'yicha naqd hisob-kitob qilish yo'li bilan xizmatlar ko'rsatishdan tushum qonunchilikda belgilangan tartibda inkassatsiya qilinadi (banklarga topshiriladi). Ushbu shartnoma bo'yicha bir taraf o'z kuchar ashyosi bo'lgan avtotransport vositasini saqlash uchun professional saqlovchi hisoblangan avtoturargohga topshiradi. Avtoturargoh tomonidan ushbu bitim patta berish yo'li bilan tasdiqlanadi. Demak mashina egasi bilan avtoturargoh o'rtasida omonat saqlash shartnomasi tuzildi. Aynan shu daqiqadan boshlab avtoturargoh avtomashinani saqlash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga kirishadi va omonatni saqlash uchun zarur bo'lgan chora tadbirlarni ko'radi. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki avtoturargoh mashinani qabul qilib olayotganda yuk topshiruvchi bilan birga mashinani joriy holatini ko'zdan kechirishi mumkin va keyinchalik zarur bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarni foto va videoyozuv orqali saqlab qo'yishi mumkin. Avtoturargoh saqlash uchun olib qolingan avtomoshinadan yuk topshiruvchining roziligisiz foydalanishi shuningdek uchinchi shaxslarning boshqaruviga topshirishi mumkin emas. Agarda o'ziga topshirilgan avtomoshinani boshqarish uning o'z holida saqlanishi uchun zarur bo'lsa, unda ushbu avtomoshinani avtoturargoh egasining ruxsatini olmasdan turib ham boshqarishi mumkin. Lekin buning to'g'risida yuk topshiruvchi darhol xabardor qilinishi shart. Agarda avtomoshinani saqlash sharoitlari o'zgarishi mumkin bo'lsa, avtoturargoh darhol yuk topshiruvchini xabardor qilishi kerak. Misol uchun avtoturargohning boshqa joyga ko'chishi, avtoturargohdagi sharoitlarning o'zgarishi, avtoturargohni zaruriy tamirlash ishlari. Bunday so'rovga albatta yuk topshiruvchi javob qaytarishi zarur. Agarda avtomoshinaning shikastlanish xavfi yuzaga kelsa, omonat saqlovchi hisoblangan avtoturargoh yuk topshiruvchining

javobini kutmasdan turib ham tegishli harakatlarni amalga oshirishi mumkin. Lekin keyinchalik ushbu harakatini yuk topshiruvchi oldida asoslashi zarur bo'ladi. Qonunchilik normalari shuni belgilaydiki, avtotransportni saqlash ishlari bevosita avtotransport vositasini saqlashni o'z zimmasiga olgan avtoturargohning xodimlari tomonidan amalga oshirilishi zarur. Lekin bu normani istisno etuvchi qoidalar ham qonunchilikda o'rnatilgan. Amaldagi Fuqarolik Kodeksining 884-moddasida ashyoni saqlash uchun uchinchi shaxslarga topshirish mumkinligi nazarda tutilgan. Unga ko'ra, agar qonun hujjatlarida va omonat saqlash shartnomasida boshqacha holat nazarda tutilgan bo'lmasa, omonat saqlovchi yuk topshiruvchining roziligisiz ashyoni saqlash uchun uchinchi shaxslarga topshirishga haqli emas, bosharti buni yuk topshiruvchining manfaatlari zarur qilib quygan va omonat saqlovchi uning roziligini olish imkoniyatidan mahrum bo'lgan bo'lmasa. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki demak avtomashinani saqlashni o'z zimmasiga olgan avtoturargoh yuk topshiruvchining manfaatlari yuzasidan ashyoni saqlashni boshqa avtoturargohga topshirishi mumkin. Bunday holatlar odatiy avtotransport vositasini qisqa muddatga (bir necha soatlar yoki kunlar) avtoturargohga topshirishga mos tushmasligi mumkin. Lekin FK 884-moddasida belgilangan norma, aeroport va temir yo'l vokzallarining pullik avtoturargohlarida avtomoshinasini uzoq muddatli omonatga qoldiradigan yuk topshiruvchi va omonat saqlovchilar uchun juda ham qulay yechim hisoblanadi. Aeroport va temir yo'l vokzallarining avtoturargohlari ko'pincha to'la va tirband bo'lishini inobatga olsak, avtomoshinasini uzoq muddatga omonatga topshirgan shaxslarning avtomoshinalarini shartnomada belgilangan muddat kelgunga qadar boshqa avtoturargohda saqlash omonat saqlovchi avtoturargohlar uchun juda ham qulay yo'l hisoblanadi. Buning uchun albatta oldindan yuk topshiruvchi shaxs bilan kelishish zarur hisoblanadi. Keyingi

avtotransport vositasini avtoturargohda omonat saqlash shartnomasining eng muhim shartlaridan biri bu albatta avtoturargohga omonat saqlangani uchun to‘lanadigan haq hisoblanadi. FKning 885-moddasiga ko‘ra, omonat saqlaganlik uchun haq saqlovchiga saqlash tamom bo‘lgandan keyin bordi-yu, saqlash uchun davrlar bilan haq to‘lash nazarda tutilgan bo‘lsa, har bir davr tugagandan keyin to‘lash zarur. Agar ushbu normani bevosita biz muhokama qilayotgan munosabat uchun qo‘llaydigan bo‘lsak, yuk topshiruvchi omonat saqlovchi hisoblangan avtoturargohga, avtoturargohdan chiqib ketayotganda haq to‘laydi. Odatiy uslubga ko‘ra, o‘z navbatida avtoturargoh to‘lov amalga oshirilganligini tasdiqlovchi kvitansiya va pattani yuk topshiruvchi hisoblangan avtotransport vositasi egasiga taqdim etadi. O‘zbekiston qonunchilik normalari avtoturargohlar uchun alohida tarif stavkalarini va avtoturargoh egalarining qanday huquq va majburiyatlari borligini nazarda tutmagan. Ushbu masalalar sohaviy xizmatlar va tadbirkorlarning o‘zlari qabul qilgan ustav va Nizomlar orqali amalga oshiriladi. Rivojlangan mamlakatlarga e‘tibor berar ekanmiz, eng yirik megapolislarda avtoturargohlar masalasi har doim muammo bo‘lib kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Zero yirik shaharlarda avtoturargohlar uchun ehtiyoj birmuncha ko‘p, shuningdek ushbu ehtiyoj avtoturargohlar shaharning markazlarida joylashishini talab qiladi. Lekin o‘z o‘zidan katta shaharlar markazlarida yer juda qimmat. Ibtidoiy uslubdagi avtoturargohlar “ulkan” maydonlar bo‘lishini talab etadi. Manashunday muammolar mamlakatlarga bevosita shu munosabatni tartibga solish uchun alohida e‘tibor qaratish kerakligini uqtiradi. Buning natijasi o‘laroq ko‘plab rivojlangan mamlakatlar hukumatlari avtoturargohga katta huquq va imtiyozlar taqdim etgan. Birgina misol 2002 yil 14 noyabrda Ispaniyada qabul qilingan, “Avtotransport vositalarini avtoturargohga joylashtirish shartnomalarini tartibga soluvchi” qonunga ko‘ra, “Avtoturargoh egasi har qanday shaxsga nisbatan to‘lovni

taminlash uchun transport vositasini ushlab turishi mumkin”.<sup>1</sup> Shuningdek avtoturargohdagi transport vositasi hech qanday xat xabarsiz va ogohlantirishsiz bir joyda 6 oydan ko‘p muddatda turadigan bo‘lsa, avtoturargoh mamlakatning “Yo‘l harakati, avtoransport vositalari harakati va yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonunining 71-moddasiga muvofiq qirollikning yo‘l harakati xavfsizligi xodimlariga avtotransport vositasini topshirishi mumkin.

Shu bilan birga har qanday yuk topshiruvchi tomonidan transport vositasi omonat saqlash uchun avtoturargohga topshirilayotganda, transport vositasidagi barcha shaxsiy buyumlar va transport vositasining aksessuarlari olib qolinishini ta‘minlash choralari avtoturargoh tomonidan amalga oshirilishi kerakligi zaruriy qo‘llanmalarda ko‘rsatilgan. Rivojlangan mamlakatlarda transport vositalarini belgilangan avtoturargohlarga (parking)larga joylashtirilmaganlik uchun joriy etilgan jarima miqdori o‘ta yuqori. Shuning o‘zi ham biz tahlil etayotgan masalaning ne chog‘lik dolzar ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek avtoturargohlar uchun beriladigan litsenziyalarni olish shartlarini ham o‘ta “shavqatsiz” deb atashimiz mumkin. Shuning o‘zi chet el mamlakatlarida parking narxi qimmat ekanidan dalolat beradi. Biz yuqorida keltirib o‘tgan shartnomaning shakliga doir masalani Yevropa va Osiyoning ba‘zi rivojlangan mamlakatlari qanday hal etganligiga to‘xtalib o‘tish joiz deb hisobladik. O‘zbekistonda avtotransport vositalarini avtoturargohlarga omonat saqlash shartnomasi odatiy usulda patta va to‘lov amalga oshirilganligini tasdiqlovchi kvitansyaning avtoturargoh tomonidan yuk topshiruvchiga berilishi orqali tasdiqlanadi. Fuqarolik Kodeksining 885-moddasida omonat saqlovchi avval omonatni saqlashi va o‘z majburiyatini bajarib bo‘lgandan keyin shartnomada kelishilgan haqni olishi mumkinligi belgilangan. Bu esa ba’zida avtotransport vositasini omonatga

---

<sup>1</sup> LAW 40/2002, 14 NOVEMBER, REGULATING THE CONTRACT OF PARKING OF VEHICLES

topshirgan shaxs va omonat saqlovchi o'rasida bazi kelishmovchiliklar yuzaga kelishini ko'rsatadi.

Lekin rivojlangan mamlakatlar buning ajoyib yechimini amaliyotga joriy etishgan. Masalan, Norvegiyada siz avtoulowingizni omonat saqlash uchun avtoturargohga topshirmoqchisiz. Buning uchun sizga mobil ilovaning o'zi kifoya. Butun mamlakat bo'ylab ishlaydigan yagona mobil ilova mavjud. Avvalo ushbu ilovani yuklab olasiz. Shu ilovaning o'zidan siz turgan joyga eng yaqin bo'lgan avtoturargohni topib olasiz. Ushbu avtoturargohga kirishingiz uchun siz ilovaga ulagan plastik kartangizda yetarlicha mablag' bo'lishi zarur. Ushbu mablag' borligi tasdiqlangandan so'ng siz o'z avtomashinangizni avtoturargohga kiritishingiz va joylashtirishingiz mumkin. Bundan oldin sizga siz tanlagan avtoturargohga mashinangizni omonatga topshirish shartlari, siz va omonat saqlovchi bo'lgan avtoturargohning huquq va majburiyatlari, shuningdek eslatmalarni o'z ichiga olgan ommaviy ofera avtoturargoh tomonidan yuboriladi. Siz tomoningizdan oferta tasdiqlangandan so'ng, siz o'z avtoulowingizni avtoturargohga joylashtirishingiz mumkin bo'ladi. Shu orqali avtoturargohlar o'zi qimmat bo'lgan omonat saqlovchi, unga to'lanishi zarur bo'lgan haqning to'lanishini ham kafolatlaydi. Manashunday innovatsion yechimlar eng ko'p nizolar yuzaga keladigan fuqarolik huquqiy munosabatlarni samarali tarzda hal etish uchun juda yaxshi "dastak" hisoblanadi.

Endi bevosita avtotransport vositasini omonat saqlash shartnomasida asosiy figura bo'lgan omonat saqlovchining javobgarlik doirasi haqida ikki og'iz so'z yuritsak. Fuqarolik Kodeksining 890- va 324-moddalariga muvofiq, avtotransport vositasi shikastlanganligi natijasida yuk topshiruvchiga ko'rgan zarar, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, yetkazilgan zararining haqiqiy miqdori sud tartibida o'sha kundagi

narxlarni inobatga olgan holda hisoblab chiqiladi. Bunda zarar aynan omonat saqlovchining nojuya xatti harakatlari natijasida kelib chiqqanligini inobatga olinadi. Agarda avtomoshina yengib bo'lmaydigan kuch yoki fors-major holatlar natijasida shikastlangan bo'lsa omonat saqlovchining javobgarligi Fuqarolik Kodeksining 333-modda tartibida hal etiladi. Bunda omonat saqlovchi hisoblangan avtoturargoh o'z majburiyatini lozim darajada bajarish uchun qilishi mumkin bo'lgan barcha harakatlarni qilganligi lekin shikastlanishni oldini olishni imkoni bo'lmaganligi (fors-major)ni isbotlab bersa javobgarlikdan ozod etiladi.

Shartnomaning bekor bo'lish asoslari. Ushbu shartnoma ko'pchilik hollarda qisqa muddatli bo'lganligi uchun yuk topshiruvchi bo'lgan avtomoshina egasining o'z ehtiyojlarini qondirib bo'lishi bilan bekor bo'ladi. Agarda shartnomada muddat ko'rsatilgan bo'lsa muddatning tugashi ham shartnomani bekor bo'lishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari qonunchilik Fuqarolik Kodeksining 892-moddasida yuk topshiruvchi bo'lgan taraf istalgan vaqtda omonatni qaytarishni talab qilishi mumkin. Buning natijasida u omonat saqlovchiga zarar yetkazgan bo'lsa, yetkazilgan zararni to'lashi shart.

O'zbekiston sharoitida avtomoshinani avtoturargohda omonat saqlash shartnomasi odatda ish muomalasi odatlari orqali kundalik hayotda hal etiladi va buni alohida tartibga solishga hozircha zarurat yuq. Lekin mamlakat rivojlanib borar ekan, yurtimiz gigant sanoat va yirik shaharlarga ega bo'lar ekan, o'z o'zidan bu masala dolzarblik nuqna nazaridan o'z buyini ko'rsatadi. Shahar markazlarida yerning kamayishi va qimmatlashuvi "parking"lar muammosini yuzaga keltiradi. Ana shundan keyin mamlakat bu munosabatni alohida qonunchilik bilan tartibga solishdan boshqa yul yuqligini, bu sohaga innovatsion g'oyalarni joriy etish haqida o'ylay boshlaydi. Shuning uchun

hozirdanoq yurtimizda yullarda pullik avtoturargohlar, yirik shaharlarda esa “green area” tizimlarini joriy etish hamda eng muhimi odamlarni jamoat transportiga kuniktirish buning uchun esa jamoat tranport infrastrukturasi rivojlantirish zarur va shart.

## Adabiyotlar/References

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi;
2. "Fuqarolik huquqi" darslik, I.Zokirov, "Adolat", Toshkent, 2007 yil;
3. Fuqarolik Kodeksiga sharx, 3-jild, "Baktria Press", Toshkent, 2013 yil;
4. "Fuqarolik huquqi" darslik, V.R.Topildiev, "Universitet", Toshkent, 2014 yil;
5. "Rim huquqi" darslik, V.R.Topildiev, Toshkent, 2006 yil;
6. Иброҳимов, А. А. Ў. (2021). КОРПОРАЦИЈНИ БОШҚАРИШДА ФИДУЦИАР МАЖБУРИЯТЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 841-853.
7. Ibrohimov, A. A. M. O. G. L., & Nechaeva, E. V. (2022). XALQARO INVESTITSIYA HUQUQIDA MILLIY REJIM VA ENG QULAY SHARTLAR REJIMI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 414-425.
8. Ibrohimov, A. A. O., Koryogdiyev, B. U. O., & Tojiboyev, S. Z. (2022). KORPORATIV NIQOBLARNI OLIB TASHLASH KONSEPSIYASI VA UNI O'ZBEKISTON KORPORATIV HUQUQIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 1068-1082.
9. O'G'Li, A. A. M. (2022). KORPORATSIYA USTAV KAPITALI FUNKSIYALARI VA UNGA OID MILLIY QONUNCHILIK NORMALARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Academic research in educational sciences*, 3(8), 109-113.
10. Azimjon, I. (2022). ZARAR-YURIDIK SHAXS ISHTIROKCHILARI VA BOSHQARUV ORGANLARI FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIGINING ZARURIY SHARTI SIFATIDA.